

# **“Shin yosong”: Koreys ayollarining ijtimoiy va madaniy identifikatsiyasi o‘zgarishi**

*Nodira Nazarqulova*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,*

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: [osiyouzturk@gmail.com](mailto:osiyouzturk@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Koreyada XX asr boshlarida yuzaga kelgan “Shin yosong” — “yangi ayol” fenomeni tahlil qilinadi. Ushbu fenomen koreys ayollarining modern jamiyatdagi yangi ijtimoiy, madaniy va gender qiyofasini shakllantirishga qaratilgan harakat bo‘lib, an’anaviy qadriyatlar va G‘arb ta’siridagi modernizm o‘rtasidagi to‘qnashuvda vujudga kelgan. Maqolada “Shin yosong” tushunchasining paydo bo‘lish sabablari, u bilan bog‘liq ijtimoiy stereotiplar, matbuotdagi aks sado va ayollar hayotidagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu hodisaning zamonaviy koreys jamiyatiga va gender rollarining qayta talqiniga ko‘rsatgan ta’siri ham o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** Shin yosong, Koreya, yangi ayol, gender roli, madaniy transformatsiya, modernizatsiya, ijtimoiy stereotiplar, ayollik timsoli, XX asr, Sharq va G‘arb qarama-qarshiligi.

“Yangi ayol” termini yapon mustamlakachiligi davrida keng qo‘llangan. Bu iboraning qanday paydo bo‘lgani hamda birinchi marta kim tomonidan zamonaviy ayollarga nisbatan qo‘llangani haqida aniq ma’lumot berish qiyin. Yaponiyada 1910-yilda Tsubouchi tomonidan qilingan “Yangi ayol” deb nomlangan ma’ruzadan keyin bu ibora keng muomalaga kirgan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Yaponiya va Koreyada “yangi ayol” haqidagi qarashlar o‘n yillik farqqa ega. Bu o‘n yil ayni vaqtida koreys qizlarining Koreya va Yaponiyada maktablar hamda boshqa o‘quv yurtlarida feminism g‘oyalari va etakchilari bilan tanishish davri hisoblanadi. Tokyoda ta’lim olib qaytgan koreys ziyoli xotin-qizlari bu g‘oyalarni mahalliy ayollar orasida ham yoyishga xizmat qilishgan.

“Yangi ayol” aslida, global fenomen bo‘lib, Angliyada viktorian davri so‘nggida birinchi bor paydo bo‘lgan hamda tez orada boshqa davlatlarga ham kirib borib, keng urfga aylangan. Bu ibora birinchi marta Sara Grant tomonidan 1894-yilda “North American Review” (Shimoliy Amerika sharhi) nomli gazetada bosilgan maqolada tilga olingan. Sara Grant Angliya va Amerikada “ayollik qoidalaring viktoriancha cheklovlariga qarshi” kurashgan ayollarga nisbatan qo‘llangan bo‘lib<sup>1</sup>, ular asriy patriarxal tartib-qoidalarga qarshi chiqib, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda o‘z o‘rnini topishni maqsad qilgan. Rita Felski bu ayollarning faoliyatini tahlil qilib, “yangi ayollar” “zamonaviylik, o‘zgarishlar va istiqbolning kuchli ramziga aylandi”, deb yozadi<sup>2</sup>. Yangi ayollar kapitalistcha bozor iqtisodiyoti va doimiy tebranib turgan siyosiy muhit bilan uzviy bog‘langan holda ta’lim, moda, ko‘ngilochar mashg‘ulotlar, tana va jinsiy o‘ziga xoslik, kasbga egallash, fuqarolik kabi masalalarini qamrab olgan faol gender siyosatini vujudga keltirgan<sup>3</sup>.

Bu davrga kelib, endi har bir jamiyatda bir qism yangi ayollar savodxonlik darajasi o‘rta yoki oliy ma’lumotga egalik darajasiga chiqib, jamiyatda avval amaliyotda bo‘lmagan qadr-qimmat va munosabatga loyiqlikni talab qilib chiqishni boshlashgan edi. Umumiylar ma’noda, “yangi ayol” iborasi moliyaviy erkinlik uchun kurashuvchi, an’anaviy oilaviy tartib-qoidalarni so‘roqqa tutadigan, xohish-istiklarini ochiq ifoda etishdan tortinmaydigan ayol ma’nosida qo‘llaniladi. Bu fenomen xalqaro miqyosda XX asrning birinchi choragida deyarli barcha G‘arb va Sharq mamlakatlariga birdek kirib borgan va ayollar tarixida muhim yangi sahifani ochgan.

G‘arb missionerlari hamda koreys ma’rifatparvarlarining ayollar ta’limi borasida ko‘rsatgan sa’y-harakatlari tufayli XX asrning birinchi choragiga kelib Koreyada yangi ziyoli ayollar qatlami shakllandi. G‘arb ta’lim tizimi koreys ayollarida hattoki missionerlarning o‘zлари ham kutmagan natijalarga sabab bo‘lgan. G‘arb madaniyati va mafkurasiga katta moyillik ko‘rsatib, ularni o‘zlashtirishda

<sup>1</sup> Richardson A. “The Birth of National Hygiene and Efficiency: Women and Eugenics in Britain and America 1865 – 1915,” in New Woman Hybridities, ed. Ann Heilmann and Margaret Beetham. – London: Routledge, 2004. – p. 243.

<sup>2</sup> Felski Rita. The Gender of Modernity. – Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1995. – p. 146.

<sup>3</sup> Soland B, *Becoming Modern: Young Women and the Reconstruction of Womanhood in the 1920s.* – Princeton: Princeton University Press, 2000. – 325 p.

missionerlarni hayratga solgan bu ayollar XX asrning 20 – 30-yillariga kelib “yangi ayollar” nomli qatlamni shakllantirgan. “Hangi ayol” iborasi Koreyada “*shin yosong*”, Xitoyda “*shin nuishing*” [xalqaro transkriptsiyada *xin nüxing* – “xin” – yangi, “*nüxing*” – ayol] hamda Yaponiyada “*atarashi onna*” [“atarashi” – yangi, “onna” – ayol] shaklida qo‘llanila boshlandi. Faqat bu hududda ayollar viktoriancha<sup>4</sup> emas, konfutsiycha tartiblarga qarshi kurashishni o‘z oldilariga maqsad qilishgan edi.

“Shin yosong”ning qanday paydo bo‘lgani haqida xorijliklar, mahalliy ziylolar, “yangi ayollar”ning o‘zлari yozgan manbalar qatorida ko‘plab vizual materiallar mavjud. O‘scha davr “shin yosong”lar qatlaming eng yorqin belgisi ularning kiyinishi va jamiyatda o‘zini tutishi bo‘lganligi bois, vizual materiallar yozma manbalardan ko‘ra ahamiyatliroq va qimmatliroq hisoblanadi. Oddiygina karikaturalarning o‘ziyoq shin yosonglar hayotining muammolarini hamda ularga nisbatan qarshilik, tanqid kayfiyatini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

1920 – 1930-yillarda feministik g‘oyalarni ilgari surgan mualliflar, jumladan, Genrik Ibsen<sup>5</sup>, Aleksandra Kollontay<sup>6</sup>, Garriet Bicher Stou<sup>7</sup>, Elen Key<sup>8</sup>, Gi de

<sup>4</sup> Viktoriancha tartiblar – bu, Angliyada paydo bo‘lgan viktorian davriga xos tartiblar.

<sup>5</sup> Henrik Ibsen (1828-1906) – norvegiyalik yozuvchi. Garchi uning “Qo‘g‘irchoqning uyi” [“A Doll’s House”, 1879] asari uchun butun dunyo feministlari uni ham feminizmning yetakchilaridan deb bilishlariga qaramay, aslida yozuvchi o‘zini guumanist deb atagan. Ibsen an‘anaviy jamiyatlarda dunyo qanchalik rivojlanmasin ayloning o‘rni kichkinagi uy bilan cheklanganidan afsuslanib, o‘z qarashlarini uchbu asarida aks ettirgan edi. Batafsil ma’lumot uchun qarang: Rayees A., Aasif R. W. The Concept of Feminism in Henrik Ibsen’s A Doll’s House. // ournal of Literature, Languages and Linguistics. – Vol.47, 2018 – pp. 52-56. Hassan Balaky S. S., Mosawir Sulaiman N.A. A Feminist Analysis of Henrik Ibsen’s A Doll’s House. // Beytulhikme An International Journal of Philosophy. – Vol.6, June 2016. – pp. 31-45. Shuningdek qarang: <https://norasworld.weebly.com/ibsen-and-feminism>. (murojaat qilingan sana: 3.06.2024).

<sup>6</sup> Alexandra Kollontai (1872-1952) – rossiyalik inqilobchi, diplomat, siyosatchi va marksizm tarafdarlaridan biri bo‘lgan ayol. Uning ayollar huquqlari borasidagi qarashlari kommunizm, marksizm va sotsializmga asoslangan bo‘lib, ishchi xotin-qizlar muammolariga diqqatini qaratadi. Kollontay tenglikka erishish kurashsiz bo‘lmagagini ilgari surgan. Mashhur asarlari: “Дорогу крылатому Эросу!”, “К вопросу о классовой борьбе”, “Третий Интернатионал и работница”, “Революционный архив” [bularning barchasi onlayshaklda quyidagi havolada mavjud: <https://www.marxists.org/russkij/kollontai/index.htm> – murojaat sanasi: 3.06.2024]. Batafsil ma’lumot uchun qarang: Novikova N., Ghodsee K. Alexandra Kollontai (1872–1952): Communism as the Only Way Toward Women’s Liberation. In: de Haan, F. (eds) The Palgrave Handbook of Communist Women Activists around the World. – Switzerland: Palgrave Macmillan, 2023. – pp. 60-95. Shuningdek qarang: «Кто Вы, Александра Коллонтай?» <https://statearchive.ru/1501>

<sup>7</sup> Harriet Beecher Stowe (1811-1896) – amerikalik mashhur yozuvchi ayppardan biri. “Tom tog‘aning kulbasi” [Uncle Tom’s Cabin, 1852] asarida qulchilikni jiddiy tanqid ostiga olgan, an‘anaviy jamiyatlarda gender rollari taqsimotini tanqid ostiga olib, ayollarning saylov huquqiga ega bo‘lishini yoqlab chiqqan. Batafsil ma’lumot uchun qarang: <https://www.harrietbeecherstowecenter.org/harriet-beecher-stowe/her-global-impact/> (murojaat sanasi: 3.06.2024). Shuningdek qarang: <https://www.womenshistory.org/education-resources/biographies/harriet-beecher-stowe> (murojaat sanasi: 3.06.2024).

<sup>8</sup> Ellen Key (1849-1926) – shved feminist yozuvchilaridan biri. Uning feminizmdagi pozitsiyasi onalik va vatanparvarlik kabi tushunchalarining o‘ziga xos qorishmasidan iborat. Mashhur asari “Suiiste” mol qilingan ayol kuchi” [“Missbrukad kvinnokraft”, 1896] bo‘lib, muallifning emansipatsiya, irq, sinf, gender kabi mavzulardagi qarashlari badiiy shaklda ifodalangan. Borgstrom E. Emancipation och evolution. Ellen Key och den villkorade kärleken. //

Mopassan<sup>9</sup>, Lev Nikolayevich Tolstoy<sup>10</sup> kabilar tomonidan yozilgan jahon adabiyoti namunalari tarjimalari Koreyada ham paydo bo‘ldi<sup>11</sup>. Henrik Ibsenning “Qo‘g‘irchoqning uyi” asari bosh qahramoni Nora Sharqiy Osiyodagi ayollar uchun kuchli ramzga aylangan<sup>12</sup>. Bu ayollar chiroyli bo‘lsa ham, aslida qafas bo‘lgan uyda yashovchi Nora qiyofasida o‘zlarini ko‘rishgan edi.

Bu mavzu Koreya tarixining eng ko‘p diqqatni tortuvchi mavzusi hisoblanib, juda ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan ham o‘rganilib kelmoqda. Hali koreys ziyoli ayollarni *shin yosong* nomini berilmasidan avvalroq, yangi madaniy belgilar ularning fikrlashi, jamiyatdagi yurish-turishiga nuqsini ura boshlagan va bu boradagi birinchi fikrlar chet elliklar tomonidan gazeta va jurnallarda maqola, xabar, hikoyalar shaklida aks ettirilgan edi. Kalta qirqilgan sochlari va inqilobiy kalta kiyimlari bilan “yangi koreys” ayoli obrazini qayta tarbiyalash jarayonini boshlab bergen bu ayollar mustamlakachilarning 1920-yildan 1940-yilgacha bo‘lgan davrida eng ko‘p tarqalgan va o‘qiladigan “Choson ilbo” va “Tonga ilbo” gazetalarining 230 dan ko‘proq maqolalarida ko‘rib chiqilgan<sup>13</sup>.

Koreya tarixchilari orasida *shin yosong* ta’rifiga oid turlicha qarash mavjud<sup>14</sup>. Bu qarashlar yangi ayollarning Koreya tarixida tutgan ahamiyati hamda ayollar

---

Heder Och Rätt / Fristående artiklar. – 2004. Vol.25. – PP. 7-22. Shuningdek qarang: <https://nordicwomensliterature.net/writers/key-ellen/> (murojaat sanasi: 3.06.2024).

<sup>9</sup> Guy de Maupassant (1850-1893) – fransuz yozuvchisi. “Azizim”, “Hayot”, “Oy nuri” kabi hikoyalarida, “Madam Bavarye” romanida fransuz jamiyatida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqida yozgan. Uning feminist yozuvchilar qatoridan joy olishiga sabab bo‘lgan tarafi – gender munosabatlarida munosabatlar erkinligi, tanlash huquqi kabilarni faol yoqlab chiqqanligi hisoblanadi. Batafsil ma’lumot uchun qarang: Dahhan F. Guy de Maupassant et les Femmes. / Essai. – France: - Le press de l’Imprimerie Bertout Rue Gutenberg, 1996. – 225 p. Shuningdek qarang: <https://owlcation.com/humanities/A-Feminist-and-Formalist-Analysis-of-The-Necklace-by-Guy-de-Maupassant-Two-Approaches-to-Interpreting-a-Literary-Work>

<sup>10</sup> Lev Nikolayevich Tolstoy () – dunyoga mashhur “Anna Karenina” romani muallifi, rus yozuvchisi. Birgina shu roman jahon feminist adabiyotining yorqin asarlaridan biridir. Bu romanda muallif ijtimoiy munosabatlardagi gender notengligiga e’tiborni qaratib, Anna misolida erkaklar va ayollar huquqlari o‘rtasidagi ulkan farqni ochib bergen edi. Asarning 625 martadan ko‘p va 40 dan ortiq tillarda tarjima qilinganiyoq uning ta’sir kuchidan dalolat beradi. Batafsil ma’lumot uchun qarang: Septian T. F. Liberal feminist values as reflected in Leo Tolstoy’s Anna Karenina // COMMICAST. – Vol.2, 2021. – pp. 8-14. Shuningdek qarang: <https://polka.academy/materials/591> (murojaat sanasi: 3.06.2024).

<sup>11</sup> Theresa Hyun. Writing Women in Korea. – Honolulu: University of Hawai’i Press, 2004. – PP. 42 – 59.

<sup>12</sup> O‘sma manba, 56-bet.

<sup>13</sup> Theodore Jun Yoo. The Politics of Gender in Colonial Korea. Education, Labor, and Health, 1910-1945. – Berkeley: University of California Press. 2008. – p. 59.

<sup>14</sup> Mavzuni o‘rgangan tadqiqotchilardan Kim Su Jin yangi ayol fenomenini ikki yo‘nalishga bo‘ladi: birinchisi, haqiqiy yangicha fikrlaydigan ayollardan iborat guruh, ikkinchisi, bosma nashrlar orqali yaratilgan diskursiv obraz. Har ikki yo‘nalish bir-biri bilan uzlusiz bog‘liq bo‘lgani holda, bir-birini rad etadigan jihatlari va xususiyatlari ham ko‘pdir. Kim Su-jin. “1920 – 30-yondae sin yosong tamnon kwa sangjing ui kusong” (Excess of the Modern: Three Archetypes of the New Woman and Colonial Identity in Korea, 1920s to 1930s). PhD diss., Seoul National University, 2005.

tarixidagi o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq qarashlarni aks ettiradi. Shunga qaramay, “shin yosong” iborasining eng keng tarqalgan ta’rifi 1920 – 1930-yillarda davriy nashrlar sahifalaridagi fotosuratlarda ko‘rish mumkin bo‘lgan talaba qizlar va/yoki shaharlik elita qatlamga mansub xotin-qizlardan iborat kichik guruh hisoblanadi<sup>15</sup>. Ular chet elda ta’lim olgan, jurnalistika, pedagogika, san’at, adabiyot kabi sohalarda faoliyat yurituvchi ayol mutaxassislarga havas qilgan bo‘lib, bu ularni nafaqat Koreyadagi shu turkum ayollarga, balki romanlar va endi urfga kirgan filmlardagi g‘arblik xonimlarga taqlid qilishga, ularning feministik g‘oyalari ergashishga undagan. Yangi ayollar konfutsiycha gender tartiblariga qarshi chiqqan, ayol-erkak tengligini talab qilgan, muqaddas onalik haqidagi g‘oyalarni inkor etganlar; bu ayollarni turli sevgi-muhabbat mojarolari qahramonlari sifatida ko‘rish mumkin edi; dunyoviy lazzatlar – xaridlar qilishdan bahramand bo‘lish, sevgi-muhabbat mojarolari haqidagi kitoblarni o‘qish, g‘arbcha bichimdagil liboslar, baland poshnali tuflilarni kiyish va o‘sha vaqtarda urf bo‘lgan hamda feministik harakatning o‘ziga xos belgilaridan biri bo‘lgan sochlarini kalta qilib qirqtirish<sup>16</sup> ularni ajratib turuvchi belgilar bo‘lgan. Davriy matbuot sahifalari nufusi tobora oshib borayotgan yangi ayollar haqida materiallarni berib borib, ularni mustaqil fikriga ega, erkin va zamonaviy hayot kechirishda o‘rnak olinishi kerak bo‘lgan misollar sifatida ko‘rsatgan. Bu kabi maqolalarning ba’zilari o‘qimishli yangi ayollarning o‘zlarini tomonidan yozilgan edi<sup>17</sup>. XX asr boshidagi voqelik, ko‘p bor ta’kidlaganimizdek, yangi ayollarga ko‘p hollarda salbiy munosabatda bo‘lib, matbuot sahifalarida konservativ fikrlovchilarning tanqid, e’tiroz, masxaralash mazmunidagi matnlari va karikaturalari bilan to‘lib-toshgan edi<sup>18</sup>. Biroq, nima bo‘lganda ham, “yangi ayollar” qatlami Koreyada ayollar tarixining yangi sahifasi ochilishiga sabab bo‘ldi.

<sup>15</sup> Sin Yong-suk, Ilche ha sin yosong ui yonae kyolhon munje (Issues of Romance and Marriage among New Women under Japanese Colonial Rule), // *Han’guk hakpo* – Seoul, 1986. no. 4. – pp. 182-217.

<sup>16</sup> Hozirgi til bilan aytganda, kare uslubi. 1920-yillarda Amerika va Yevropada “Bob style hair” yoki “bobbed hair” deb atalar edi va xalqaro miqyosda feminist ayollar isyonining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lgan. Ma’lumot va fotosuratlar uchun kiring: <https://glamourdaze.com/2014/04/1920s-hairstyles-the-bobbed-hair-phenomenon-of-1924.html>

<sup>17</sup> “Sin yoja munje taeyahwahoe” (Big Night Conversation about New Women), *Sin yosong* 2, no. 12 (1924): 44 – 49 (from 47).

<sup>18</sup> Kim Jong Mok. Hyongmoyangcho eso pheminisithikkaji “Shinyosong tochakxada” [김종목. 현모양처에서 페미니스트까지 ‘신여성 도착하다’ 전] – Dono ona va yaxshi xotindan feministlikka: “Yangi ayol yetib keldi” [uploaded on December 27, 2017] // <https://m.khan.co.kr/culture/> [murojaat sanasi: 18.09.2022]

Bundan ham ko‘rinadiki, ayollarning bunday keskin o‘zgarishi jamiyat a’zolarini xavotirga solgan. Koreys ayollari hali “shin yosong”larga aylanib ulgurmagan, ammo ayollarning xatti-harakatida ilk belgilar paydo bo‘layotgan bir paytda ular haqida yozilgan bir material shin yosonglarning birinchi avlodiga doir ma’lumotlarga to‘la. Masalan, 1901-yildan Seuldagi metodistlar cherkovi homiyligida chiqarila boshlangan “Korea Review” (Koreya sharhi) gazetasida ismi qayd etilmagan ayol tomonidan “Koreyada ayollar huquqlari” nomli maqola e’lon qilingan. Muallif oliy tabaqa koreys ayollari bilan bo’lgan birinchi uchrashuvi haqida hikoya qiladi. Bu ayollar muallifdan har yakshanba oqshomlari bo‘ladigan yig‘ilishda Injildan va’z o’qishni, boshqa kunlar esa ilohiy bilimlardan dars o‘tishni iltimos qilishgan. Ular, shuningdek, bu xonimdan o‘zlarining “Xonimlarning tijorat assotsiatsiyasi” deb nomlangan klublari yo‘riqnomasini ko‘rib chiqishini so‘rab, u haqidagi fikrlari bilan qiziqishgan.

Ayol bu klub a’zolarini tasvirlar ekan, ularning g‘arbning yanglish ayollaridan o‘rnak olishayotgani va buni to‘g‘ri deb hisoblamasligi haqida yozadi. Shuningdek, klub yo‘riqnomasi ayolda katta taassurot qoldirganini ham yashirmaydi. Maqoladan ma’lum bo‘lishicha, o‘sha vaqtida g‘arbda namunali ayollar klub a’zolari taxmin yoki taqlid qilayotgan ayollar emas, balki “... ularga haqiqatni ko‘rsatganda to‘g‘ri ideallar – bu, baxtli ayol – ko‘p narsaga chidaydigan, ko‘plab klublarga a’zo bo’lgan yoki dunyoning eng shov-shuvli voqealari markazida turadigan ayollar emas, balki bosiq onalar va qizlar, uy o‘chog‘i sohibalari, qadrlanuvchi, seviluvchi, muqaddas, xonadonning himoyalangan ilohiy ibodatxonasida katta muammolarga to‘la dunyodan chetda quvonch va qulaylik bo‘lgan tinch va sokin joyda yashovchi ayollardir”<sup>19</sup>. Ko‘rinib turibdiki, garchi g‘arblik ayollar muallifning o‘zi kabi xorij davlatlariga erkin sayohat qilishsa ham, ma’lum bir jamoat ishlarida qatnashishsa ham, biroq barchaning diqqat markazida bo‘lish – bu ko‘p ham ma’qul ko‘rilmaydigan ish, deb hisoblashgan. “Biz bu ayollarga ayolning doirasi oila qurish, ayolning ideali sevish va sevilishdan iboratligini ko‘rsatishimiz shart”<sup>20</sup>.

<sup>19</sup> Korea Review, 1906-yil fevral oyi soni. 56-bet.

<sup>20</sup> O‘sha joyda.

Muallif klub a’zolari bilan birinchi marta ko‘rishar ekan, uni kutib olgan ayolni shunday tasvirlaydi: “Meni [bu yig‘inga] chaqirgan ayol ko‘rinishidan odatiy ayollardan emas edi. Uning xorijniki bo‘lgan kiyimlari ranglari o‘ta didsizlik bilan tanlangan edi. Qish bo‘lishiga qaramay, uning liboslari yozbop bo‘lib, patli elpig‘ich ham ushlab olgan. Bunga qo‘srimcha yorqin qizil rangli yubka kiygan bo‘lib, paxmoq koreyscha uzun palto diqqatni tortardi. Bunga qo‘srimcha koreyscha himoya ko‘zoynagini eslatuvchi aylana ko‘zoynak (bu turkum ko‘zoynaklar “yangi ayollar”ning asosiy belgisiga aylangan edi) hamda didsizlik bilan tanlangan taqinchoq taqqan”<sup>21</sup>.

Bu tasvirni o‘qigan har qanday odamning ko‘z o‘ngida muallifning ta’biri bilan aytganda garchi “kulishni istamasa ham”, g‘ayrioddiy va g‘arbcha madaniyatga xos elementlarning masxaraomuz birlashtirilgan namunasi paydo bo‘ladi. O‘zi g‘arbdan kelgan ayol uchun ular tomonidan qadrlanadigan kiyinish qoidalarini ostin-ustun qilib tashlagan bu ko‘rinish achinish hissini uyg‘otgan. Muallif bunda missionerlar tomonidan ochilgan va g‘arbcha ta’lim berishga moslashgan maktablar faoliyatini aybdor qilib ko‘rsatadi. Chunki “Bu qizlar binafsha [tovlanuvchi] qora rangli paxtalik matodan ko‘ylak kiyishgan bo‘lsa, bel qismi va yubkasi boshqa matodan tikilgan, odatda, bunday kiyimni xorijlik qizlar kiyishar edi.”

Missionerlar bunday o‘zgarish koreys erkaklari bilan sodir bo‘ladi, deb taxmin qilishgani bois, koreys ayollarining sotsiumda o‘zini tutishi ularni hayratda qoldirgan. Bu maqola Koreyadagi missionerlikning o‘ziga xos jihatini oolib bergen: missionerlar xristianlik dini va zamonaviy yangiliklarni yoyishni maqsad qilgan bo‘lsa ham, yarimorolda necha asrlardan beri mavjud bo‘lib kelgan qadriyatlarni tagtugi bilan yo‘q qilishni istamaganlar. Zotan, muallifning iddaolariga yondashilsa, ayollarga doir tartib-qoidalar G‘arb va Sharqda keskin farq qilmagan, ta’lim olish imkoniyatini hisobga olmaganda, albatta. Ammo, koreys ayollari ta’lim olish bilan birgalikda g‘arb madaniyatini o‘zlashtirish borasida ham anchagina ilgarilab ketishgan ko‘rinadi.

---

<sup>21</sup> O‘sha manba, 51-bet.

“Xonimlar tijorat assotsiatsiyasi” klubining yo‘riqnomasi ayollar huquqlariga bag‘ishlangan madhiyani eslatadi. Yo‘riqnomada ayol va erkakni teng deb belgilash bilan cheklanmaydi, balki ayolni ustun ham qo‘yadi. Buning sababi “agar ayollar bo‘lma ganda edi, erkaklar rivojlana olmas edilar”<sup>22</sup>. Shundan kelib chiqib ayollar har sohada erkaklar bilan teng huquq va imkoniyatga ega bo‘lishlari zarur. Bunda “Birlik – kuch. Garchi bir dona bambuk oson qayrilsa ham, bambuk to‘plami esa uyga salqinlik beruvchi soyabon [ayvonga o‘xshash, qishloq koreys uylarining o‘ziga xos elementi] bo‘lishi mumkin, yoki to‘lqin kichik bo‘lishi mumkin, ammo ularning bir qanchasi dengizni uyg‘otib yuborishi mumkin”<sup>23</sup>. Klub a’zolari asosan yuqori tabaqa ayollardan tashkil topgan bo‘lib, xalqaro tijoriy faoliyat yuritishni maqsad qilishgan edi. Matndan kelib chiqib, ularning moliyaviy imkoniyatlari yaxshi bo‘lganligini xulosa qilish mumkin. Yo‘riqnomada rivojlangan g’arblik bo‘lgan bu ayolda o‘zining pishiqligi, maqsad qilingan barcha masalalarni qamrab olganligi tufayli katta taassurot qoldirgan. Birlashma a’zolari tijorat bilan cheklanmasdan, boshqa koreys xotin-qizlariga ijobiy ta’sir o‘tkazish, ularni yaxshi tarafga o‘zgartirishni ham o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishgan ham edi.

Keyinchalik ma’lum bo‘lishicha, bu klub a’zolari o‘quvchi qizlarni “sharqona xurofot”dan qutulishga hamda mакtabga borish va qaytishda buni ko‘rsatish uchun kunduzi boshlariga yopinchiqlarini yopmaslikka chaqirishgan. O‘rta qatlam ayollarini ham imkoniboricha odamlar ko‘zidan panada saqlashga urinuvchi koreys udumlaridan yaxshi xabardor odam uchun radikal harakat bo‘lib tuyulgan<sup>24</sup>. Missioner ayolning bu maqolasidan ham anglashiladiki, missionerlar Koreya hayotiga keskin o‘zgarishlarni olib kirmasdan, yangi g‘oyalar, til (ingliz tili) hamda din orqali zamonaviylikni targ‘ib qilmoqchi edilar. Biroq aftidan ularning targ‘ibotlari yondosh oqibatlarga olib kelgan.

Choson jamiyatidagi ilk ta’lim islohotlari natijasida paydo bo‘lgan yangi ayollar qatlami o‘zini tutishi va xatti-harakatlari bilan faqatgina chet elliklarning

<sup>22</sup> O‘sha manba, 52-bet.

<sup>23</sup> Korea Review, 1906-yil, fevral soni, 52-bet.

<sup>24</sup> “Ladies Commercial Association” [“Ayollar tijorat assotsiatsiyasi”] // Korea Review 6. – Seoul, Feb. 1906. No. 2 – p. 51.

emas, balki mahalliy ziyolilarning ham salbiy tanqidlariga duchor bo‘lganlar. Agar ba’zilar bu jarayonga koreys ayollarini shunchaki yangi fikrlar, qarashlar va odatlarni o‘zlashtiryapdi, ya’ni zamonga moslashyapdi, degan ma’noda ularni oqlagan bo‘lsa, boshqalar ular bu jarayonda haddan tashqari ilgarilab ketadi, deb qo‘rqanlar.

Koreyada “yangi ayol”larning paydo bo‘lishi 1920-yilda Kim Von Ju tomonidan “Shin yoja” (“Yangi ayol”, huddi “yosong”dek “yoja” so’zi ham koreys tilidan tarjima qilinganda, “ayol” ma’nosini bildiradi) jurnalining ta’sis etilishi bilan rasman boshlangan. Jurnalning ikkinchi sonida “Yangi ayol deklaratsiyasi” chop etildi. Bu deklaratсиya o’z zamonasi uchun inqilobiy xarakterga ega bo’lib, an’anaviy koreys ayollarining erkaklarning asossiz zulmi ostida ezilgan qullar ekanligi, bunga chek qo’yib, ayol va erkaklar o’rtasida gender tengligiga asoslangan munosabatlarning o’rnatalishi zarurligi bayon etilgan edi. Qolaversa, ular an’anaviy axloq qoidalariga zid bo‘lgan erkin hayot tarzini olib borish orqali, tashqi ko‘rinish va kiyinish uslublariga amal qilish orqali an’anaviy gender rollari taqsimotiga ochiq isyon qilishib, jamoatchilik e’tiborining markaziga aylangan. Ular tomonidan taklif qilinayotgan feminism g’oyalari ko’r-ko’rona g‘arbgan ergashish va quruq nazariya bo‘lmasdan, koreys xotin-qizlarining hayotiy tajribasi hamda rivojlanish darajasiga asoslanilgan va moslashtirilgan edi. Shunga qaramay, yangi va eski madaniyat to‘qnashgan transformatsiya davrida shin yosonglarning sa’y-harakatlari ko‘p hollarda hech qanday natija bermagan. Buning sabablaridan biri bu qatlamga mansub Kim Von Ju kabilarning shaxsiy hayoti bilan bog‘liq mojaroli hodisalarining jamoatchilikka tarqalib ketgan va jiddiy tanqid bilan qabul qilinganidir. Bu o‘zgarishlar Yaponiya mustamlakachiligi davrida sodir bo‘lgani bois, ularga nisbatan shakllangan salbiy munosabat mustamlakachilikka qarshi kurash bilan qorishib ketgan. Buning sabablari qilib koreys millatparvarlari va yapon mustamlaka ma’muriyatining yangi ayollarni vizuallashtirish hamda xalqqa taqdim etish borasidagi bir-biriga mos kelmaydigan yondashuvlarni keltirish mumkin.

*Birinchi shin yosong yozuvchi va shoiralari.*

Ma’lumki, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrning birinchi yarmi davomida Sharqdagi barcha uyg‘onish harakatlari uchun davriy matbuot nashrlari yangi g‘oya

va qarashlarni xalqqa etkazish, bu orqali uni uyg‘otishning eng kuchli, shuningdek, maqbul vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Ta’lim sohasida biroz ilgarilashga erishib, o‘sib kelayotgan avlodni o‘qimishli qilish imkoniyatlarini kengaytirishga urinar ekan, barcha ma’rifatparvarlar ayni vaqtda ularning mamlakat va jahon miqyosida sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalardan ham boxabar bo‘lishiga e’tibor qaratishgan. Negaki, maktab ta’limi faqat mavjud bilimlarni berishga tayanib, o‘qituvchi va muallimlar doim ham darslik chegarasidan chiqa olish imkoniyatiga ega emas. Davriy matbuot orqali jahon xabarlarini tez-tez berib borish, bunga qo‘srimcha, sohani yaxshi tushunadigan muallifning vatanparvarlik va/yoki ma’rifatparvarlik nuqtai nazaridan turib tayyorlangan tahliliga asoslanib taqdim etiladi. Albatta, XX asrning birinchi yarmi jahon tarixining eng murakkab va beqaror davri bo‘lganligi bois, ma’rifatparvarlar bu vaziyatni hisobga olishgan.

Bu jarayon fonida ayollarning gender tengligiga erishish uchun kurashi, avvaliga sufrajizm, keyin mo‘tadil hamda radikal feminizm shaklida davom etdi. Ochiq jamiyat hayotidan uzoqda tutilgan, moliyaviy tarafdan oila erkaklariga qaram bo‘lgan koreys xotin-qizlari navbat bilan birinchi milliy uyg‘onish harakatlari, keyin xristian missionerlari va nihoyat, yapon mustamlaka boshqaruvi ostida ta’lim olish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. Butun dunyo bo‘ylab keng globalizatsiya jarayoni borar ekan, o‘qimishli ayollar gazeta-jurnallarni o‘qish, xorijda ta’lim olish mobaynida bu o‘zgarishlardan xabardor bo‘lib, ularning dunyoqarashida jiddiy o‘zgarishlar paydo bo‘lishni boshlagan. Ayollarning turli klub va jamiyatlarga birlasha boshlagani, asta-sekinlik bilan mamlakatning chekka hududlaridagi xotin-qizlarni ham “uyg‘onish”ga chaqirishda davriy matbuotning ahamiyatini anglab etish orqali uning sahifalaridan unumli foydalanish istagini uyg‘otgan.

Yuqoridagilar va savodli xotin-qizlar nufusining oshib borishi bilan ayol yozuvchi-jurnalistlar sonining oshishiga sabab bo‘ldi. Bu ayollar publisistik maqolalar bilan cheklanmasdan, ayollar mavzusiga bag‘ishlangan zamonaviy koreys adabiyoti rivojiga ham hissa qo‘sghanlar. Shunday nashrlardan biri 1922-yilda chiqarilgan “Puin” (“Ayol”, koreys tilida “xotin” ma’nosida qo’llaniladi) jurnali

ayollar haqidagi munozalarni ko‘tarib chiqib, ayollar tengligi kensepsiyalaridan kelib chiqadigan muhim masalalarni yoritgan.

Taniqli ayol yozuvchilarning birinchisi Kim Myong Sun (1896-?) bo‘lib, ishlarini Tanshil tahallusi bilan nashr qildirgan. Avvaliga Ehva mакtabida, keyin Tokiyoda ta’lim olgan Kim Myong Sun bu jarayonda koreys yozuvchilar bilan tanishadi. Uning birinchi asari 1917-yilda yozilgan “Shubha qilayotgan qiz” deb nomlangan, realizm yo‘nalishiga asoslangan qisqa hikoya bo‘lib, koreys adabiyotida inqilobiy yondashuvdir. Kim Myon Sung ayni uslubda keyinchalik ham bir qator asarlar yozgan; vaqt o‘tgani sari uning ishlarida “romantik, estetik va his-tuyg‘ularga urg‘u berish” xususiyatlari kuchliroq sezila borgan<sup>25</sup>.

Boshqa bir nomdor ayol yozuvchi Kim Von Ju (1896-1971) Ilyop taxallusi bilan faoliyat olib borgan. U ham avval Ehva, keyin Tokiyoda ta’lim olgan. Kim Von Ju adabiy karyerasini Ehva xaktang tomonidan homiylik qilinadigan “Shin yoja” (“Yangi ayol”) jurnali muharriri sifatida boshlagan. Shu sababdan, Kim Myong Sundan farqli ravishda, asosiy diqqatini ayollar emansipatsiyasi masalalariga qaratgan. 1921-yilda chop etilgan “Status kvo birinchi buzib o‘tish”, deb nomlangan maqolasi yozuvchining ayni masalaga oid shaxsiy yondashuvlarini ochib bergen. Kim Von Ju ayollarning erkaklardan ozod qilinishi ularning rivojlanishi va o‘sishi uchun muhim, deb hisoblagan. 1926-yilda nashr etilgan “Uyg‘onish” (“Awakening”) deb nomlangan romani ana shu qarash asosiga qurilgan bo‘lib, muallif ayollarning o‘z-o‘zini tanishi uchun nafaqat erkaklardan (ko‘proq, erlaridan) ozod bo‘lishi, balki bolalardan (ya’ni, farzandlardan) ham ozod bo‘lishi kerak, degan mazmunni yoritgan edi. Albatta, bunday inqilobiy qarash bilan chiqish o‘sha davr koreys jamiyatida Kim Von Ju uchun yaxshilik bilan yakunlanmagan: yozuvchi umrini buddist rohiba sifatida xor-zorlikda yakunlashga majbur bo‘ldi. Kim Von Juning ijodi XX asr birinchi choragi radikal feministlari faoliyatiga mos kelib, nafaqat, sharq jamiyatlari balki, G‘arb uchun ham qabul qilish imkonsiz hisoblanadi.

---

<sup>25</sup> Choi H. Gender and Mission Encounters in Korea: New Women, Old Ways. – Berkeley: University of California Press, Ltd. 2009. – p. 160.

Hozirgi zamонавиј даврга келиб ham gender munosabatларда tenglik masalalarining turli jihatлари muhokama qilinganda, ayollarning oila qurish va farzand ko‘rishga nisbatan bildirgan har qanday salbiy munosabatini qattiq qoralash ko‘p uchraydi. Bu nafaqat konservativ guruхlar tomonidan, balki mo‘tadil va liberal guruхlar tomonidan ham ma’qul ko‘rilmaydi. Har qanday vaziyatda ham, oila barcha jamiyatlarning markazida turuvchi birlik; jamiyat barqaror bo‘lishi uchun gender zanjirining barcha halqalari: otalik-onalik va farzandlik o‘zaro muvozanatda mavjud bo‘lishi shart, deb hisoblanadi. G‘arb davlatlarida ham, Sharq davlatlarida ham jamiyatni faqat birlik individuallardan tashkil etish – yuqori ehtimollik bilan xaosga sabab bo‘lishi mumkin. Bu o‘rinda, vertikal yoki/va gorizontal iyerarxiyaning ahamiyatini e’tiborga olish zarurdir. XX asr birinchi choragida faoliyat yuritgan “shin yosong”lar qatlami ko‘plab vakillarining taqdiri shu boisdan ham, ayanchli yakun topgan edi.

Ana shunday taqdirni boshidan kechirgan “shin yosong”larning yorqin vakilalaridan biri Na Hye Sok (1885-1946) hisoblanadi. U ham avval Ehva xaktangda, so‘ngra Tokiyo va Parijda ta’lim olgan. Yozuvchilik faoliyatini 1918-yilda boshlagan bo‘lib, bunga boshqa bir ayollar jurnali “Yojagye” (“Ayollar dunyosi”) turtki bergani yoziladi<sup>26</sup>. Ibsenning qahramonidan ruhlanib yozilgan “Nora”<sup>27</sup> she’ri Na Hye Sokning she’riyat va ayollar ozodligiga bo‘lgan qiziqishini ko‘rsatib bergen.

Na Hyesok (1896-1948) Koreya tarixinining “yangi ayol” qatlamiga mansub eng mojaroli vakilalaridan biri hisoblanadi. Na Hyesok 1896-yilda badavlat xonadonda tug‘ilgan bo‘lib, birinchi tahallusi Jeongvol bo‘lgan. 1913-yilda Jinmyong qizlar oliy mакtabini tamomlagach, Tokiyo san’at kollejida G‘arb moybo‘yoq rassomchiligi yo‘nalishida ta’lim olgan.

1919-yilda Na Hyesokning birinchi siyosiy hayotga bog‘liq chiqishi sodir bo‘ldi. Butun Koreyani qamrab olgan 1-mart harakatlaridagi ishtiroki uchun boshqa ko‘plab yoshlar qatori Na ham qamoqqa olingan. Oilasi tomonidan yollangan va keyinchalik u bilan oila qurgan advokatgina uni ozodlikka chiqishiga erishgan.

<sup>26</sup> Kumari Jayawardena. Feminism and Nationalism in the Third World. – New York: Verso Brooklyn, 2016. – p. 281.

<sup>27</sup> Susanna Rustin. Why A Doll’s House by Henrik Ibsen is more relevant than ever. The Guardian: Culture, Stage. [posted on 10 August, 2013]. // <https://www.theguardian.com/stage/2013/aug/10/> [murojaat sanasi: 15.07.2021]

Kelgusi yili Na Hyesok bir qator ziyolilar bilan birga “Pyeho” adabiy jurnali (“Xarobalar”, 1920 – 1921-yillar, shu nomdagi madaniy tor doira tomonidan ta’sis etilgan)<sup>28</sup> asoschilaridan biri bo‘ldi. 1921-yilda bu jurnalda uning “Qum” (“Sa”) va “Oqim” (“Naenmul”) deb nomlangan she’rlari chop etildi. 1920-yillarning boshlarida “Korean women” (Koreys ayoli) jurnalida uning bir qator maqollari, shuningdek, “Shinyoja” (“Yangi ayol”) jurnalida ayollar kiyimi islohoti mavzusidagi maqolasi e’lon qilingan edi.

1927-yilda Na Hyesok va turmush o‘rtog‘i Yevropaga uch yillik safarga jo‘nab ketishadi. Parijda ekanliklarida Na Hyesokning chondoizm etakchisi Choy Rin bilan ishqiy munosabatda bo‘lganligi haqida mish-mishlar tarqali va oqibatda xiyonat 1931-yilda ajrimga sabab bo‘ladi. Biroq, voqealar sababli Na Hyesokning san’atdagi faoliyatini uning axloqsizligini oqlash uchun bir vosita bo‘lgan, deb asarlariga va tabiiy ravishda uning shaxsiga salbiy munosabat bildiriladi. Ajrimga va obro‘siga jiddiy putur etganiga qaramasdan, Na Hyesok rassomlik faoliyatini davom ettiradi hamda 1931-yilda O’ninchি Choson San’at ko‘rgazmasida maxsus mukofotni qo‘lga kiritadi.

Rassom bo‘lish bilan bir qatorda, Na Hyesok she’rlar, hikoyalar, sayohat kundaliklari, zamonaviy davr ruhi bilan to‘lib-toshgan tanqidiy ocherklarini e’lon qilib borgan. Shin yosonglarning boshqa vakilalaridan farqli Na Hyesok o‘z diqqatini asosan koreys ayollarining nikoh va nikohdan tashqarida yashash va juft tanlashdagi erkinligiga qaratgan va ayni vaqtida erkaklarga bu borada keng erkinlik bergen partiarxal tuzumni keskin tanqid ostiga olgan. Uning bu qarashlari 1930-yilda chop etilgan “Birgalikda yashash haqida” (*Shilhom kyoron-non*), 1934-yilda chop etilgan “Ajrimni e’tirof etish” (*Ihon kobekso*), 1935-yilda chop etilgan “Turmushga

<sup>28</sup> “Pyeho”, “Changjo”, “Bekjo” – bularning har uchalasi shu nomlardagi adabiy doiralarning nomlari va ular tomonidan ta’sis etilgan jurnallar hisoblanadi. Bu jurnallarning nashr etilish vaqtiga 1910-yillarning oxiri – 1920-yillar davomida bo‘lib, tarixchilar bu qisqa davrga mazmunidan kelib chiqib 同人지시대 [donginji shide] – adabiy doiralar jurnallari davri [erasi] deb nom berishgan. Bu doiralarni alohida yoki yaxlit bir butun sifatida olib o‘rganish orqali tarixchilar Koreyada yangi va zamonaviy adabiy g‘oyalarni qabul qilish va yarimorolda rivojlantirish uchun paydo bo‘lgan mahalliy harakatlarning ahamiyatini ta’kidlashni maqsad qilishadi. Garold Blum bu davrga nisbatan koreylarning “[tashqi] ta’sir tashvishi” (“anxiety of influence”) deb atalgan holatini o‘rganish uchun boshlang‘ich davr deb atalgan fikrni ilgari surgan edi. Ko‘proq ma’lumot uchun qarang: Jae Yon Lee. Before and after the “Age of Literary Coterie”: A Diachronic Analysis of Writers Networks in Korea, 1917-1927. Korea Journal, vol. 57, no. 2 (summer 2017): 35–68. Korean National Commission for UNESCO, 2017.

chiqmagan ayollarning jinsiy hayoti” (*Tokshin yoja chong choron*) nomli maqolalarida yoritib berilgan.

Uning 1934-yilda “Samcheolli” jurnalida chop etilgan “Ajrimni e’tirof etish” deb nomlangan maqolasi inqilobiy mazmunga ega bo‘lib, gender notengligiga asos bo‘lgan koreyscha axloq va qadriyatlar bilan bog‘liq muammolarni ko‘tarib chiqqan. Uning “tashviqotlari” G‘arbda yoyilishni boshlagan radikal feminism g‘oyalari: nikohdan oldingi erkin munosabatlar – “sinov uchun nikoh”, umr yo‘ldoshini va kasbni erkin tanlash, har qanday o‘zgarishlarda va jarayonlarda teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lish kabilarga ko‘proq mos keladi.

Na Hyesokning badiiy adabiyot sohasidagi mashhur asari hali Yaponiyada o‘qiyotgan 1918-yilda nashr qilingan “Gyonghe” koreys adabiyotidagi birinchi feministik mazmundagi qisqa hikoya ham hisoblanadi. Unda muallif ayolning o‘z o‘zini kashf etishi, “yangi ayol” sifatida hayotning mazmunini izlashi bilan bog‘liq jarayonni ochib berishga harakat qilgan edi. Na Hyesokning ishlari 1920–1930-yillar koreys adabiyotida mashhur bo‘lgan, shuningdek, patriarchal jamiyatga xos bo‘lgan ayollarga nisbatan jabr-zulmnii fosh qilish ruhida yozilgan. 1921-yilda yozilgan “Qo‘g‘irchoqning uyi” (*Inhyonge chip*) deb nomlangan poemasi koreys ayollar uchun odobli qiz farzand, yaxshi xotin hamda g‘amxo‘r ona uchligidan iborat majburiy rollarni belgilab qo‘ygan feodal jamiyat, konfutsiycha oila qadriyatlaridan kelib chiqib mamlakatni ayollarni qo‘g‘irchoq sifatida biluvchi ramziy uy sifatida tasvirlaydi. Na Hyesokning boshqa bir qisqa hikoyasi 1937-yilda nashr etilgan “Ona va qiz” (*Omoniva ttal*) deb nomlangan bo‘lib, eski ayol va yangi ayol o‘rtasidagi ziddiyatni ochib berishga qaratilgan. Bu hikoya hayotiy voqealarga asoslangan bo‘lib, ajrimdan biroz oldin pansionatda yashagan vaqtida o‘zi guvoh bo‘lgan mutaassib ona va uning zamonaviy qizi o‘rtasidagi kelishmovchiliklar yoritilgan.

Ayol duch kelishi mumkin bo‘lgan turlı hissiyotlar, qarama-qarshiliklar, nikoh, homiladorlik, farzand dunyoga keltirish va uni voyaga etkazish, ayni vaqtda, jamiyatda o‘z o‘rnini topish kabi masalalarga nisbatan radikal qarashlari aks ettirilgan “Ona bo‘lish haqidagi fikrlar” (“Thoughts on Becoming a Mother”, 1923) nomli uzun ocherki jiddiy tortishuvlarga sabab bo‘lgan edi.

Yuqorida hayoti va faoliyati ko‘rib chiqilgan ayollar *shin yosonglar* ichida sanoqli va mashhurlaridan bo‘lib, ulardan tashqari, bu davrda ta’lim, tibbiyat, huquq, ishlab chiqarish sohalarida jonbozlik ko‘rsatgan ko‘plab koreys xotin-qizlari yashab o‘tgan. Ular orasida G‘arb mamlakatlariga borib, feminizm va gender tengligi ijtimoiy mavzulardan ko‘ra, aniq va tabiiy fanlar, inson huquqlarining boshqa turli jihatlarini ham o‘rganib qaytgan ayollar ko‘pchilikni tashkil qilgan<sup>29</sup>.

XIX asrning so‘nggi choragidan boshlab islohotchilar tomonidan tarbiyalangan va zamonaviylik, sivilizatsiya va milliy hurriyatga intilish ramzi sifatida qo‘llab-quvvatlangan bu o‘qimishli ayollar oila mustahkamligini va jinsiy axloq qoidalarini zaiflashtirgan hamda milliy mentalitet degradatsiyasiga sabab bo‘lgan o‘ziga xos qatlam bo‘ldi. Ular bu yo‘nalishlarda qo‘yib ketgan tamal toshlari hamon deyarli jiddiy o‘zgarishlarsiz turibdi va yosh koreys qizlari uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

---

<sup>29</sup> Kumari J. Feminism and Nationalism in the Third World. Verso Brooklyn, New-York, 2016; Hyaeweol Choi. Gender and Mission Encounters in Korea: New Women, Old Ways. University of California Press, Ltd. Berkeley and Los Angeles, California. London, England. 2009; Theodore Jun Yoo. The Politics of Gender in Colonial Korea. Education, Labor, and Health, 1910-1945. University of California Press Ltd., 2008 va bq.